

YAQIN SHARQ MINTAQASIDAGI ETNOSIYOSIY, IJTIMOIY - IQTISODIY JAYONLAR VA O'ZARO MANFAATLAR TO'QNASHUVI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13847769>

Yodgoraliyev Boburjon Bahodir o'g'li

Namangan shahar 24-maktab tarixfani o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada Yaqin Sharq davlatlarining etnik tarkibining ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'siri, mintaqadagi davlatlararo etnosiyosiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, Yaqin Sharqdagi geosiyosiy jarayonlarda tashqi kuch omilining etnosiyosiy vaziyatiga ta'siri kabi masalalar o'rganilgan.

Kalit so'zlar

Yaqin Sharq, etnik, etnoknfessiya, geosiyosiy, etnosiyosiy, ijtimoiy-siyosiy, "arab bahor", diniy, strategiya, neft .

Bugungi kunga kelib Yaqin Sharq mintaqasi davlatlaridagi eng murakkab masalalar orasida ularning o'z jamiyatlari va undagi etnik ozchiliklar huquqlarini to'la ta'minlay oladigan kuchli davlat sifatida shakllanmaganligi bo'lib qolmoqda. Ushbu davlatlar turli murakkab etnik va diniy guruhlarga ega bo'lgan ko'p millatli davlat sifatida etnik munosabatlar siyosiy-ijtimoiy muvozanatini ta'minlash masalalari yuzasidan jiddiy muammolar qurshovida qolib kelmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda Yaqin Sharq mintaqasi (ingliz tilida Middle East) tarkibiga Isroil, Falastin, Suriya, Livan, Iordaniya, Misr, Turkiya, Iraq, Eron va Fors ko'rfazi arab davlatlari kiritilgan²⁴. Ushbu mintaqqa uzoq tarixga ega bo'lgan, insoniyat sivilizatsiyasida alohida o'rinn tutgan va turli madaniyatlarni o'zida qamrab olgan hudud hisoblanadi. ijtimoiy-siyosiy yo'nalishlardagi fanlarining muhim obyektiga aylandi. Mutaxassislar tomonidan esa etnosiyosiy munosabatlar davlatlarning nafaqat ichki, balki tashqi siyosatida ham katta ahamiyat kasb etib borayotganligini keng miqyosda talqin qila boshladilar.

Yaqin Sharq mintaqasi etnik jihatdan o'ziga xos bir qator xususiyatlar va murakkabliklarga ega bo'lib, mintaqqa davlatlaridagi turli etnoslarning mavjudligi hamda ular orasidagi qarama-qarshiliklar barqaror siyosiy tizimni yaratishda asosiy to'siqlardan biri bo'lib qolmoqda. Mazkur muammolarning asosiy sabablari,

24 Каримов Ф.Э. Яқин Шарқ давлатларидағы этносиёсий жараёнларнинг миңтақа хавфсизлигига таъсири:
Сиёсий фанлар номзоди ... дисс. – Тошкент, 2017. 56 б.

shuningdek, Yaqin Sharq mamlakatlarining kolonial qaramlikdan qutulgandan keyingi vaziyati bilan bog'liqdir. O'tgan asrda mazkur mintaqada mustaqil davlatlarning davlat chegaralari kelajakda etnik ziddiyatlarga sabab buluvchi chiziqlardan o'tgan edi. Shuningdek, ularning aksariyati ya'ni mustaqil industriallantirish sharoitlariga moslasha olmadilar. Boz ustiga mazkur hududlarda demografik vaziyat ham nihoyatda yomon avjida qolmoqda. Aholining yillik o'sish sur'atlari, iqtisodiy taraqqiyot imkoniyatlaridan ancha yuqoridir.

Musulmon davlatlari (shu jumladan arab islam davlatlari) ijtimoiy - siyosiy hayotida Islom dinining roli sezilarli darajada oshdi²⁵. Yaqin Sharq mintaqasi ko'p millatligi bilan birga, dunyodagi yirik dinlari - islam, xristian va yahudiy din vakillari uchun ham muhim ahamiyat kasb etuvchi mintaqa hisoblanadi. Aynan mazkur mintaqada diniy va konfessional nuqtai nazardan ziddiyatlar ko'p uchraydigan hudud sifatida e'tirof etiladi. Bunday ziddiyatlar esa o'z navbatida, ma'lum bir ma'noda mintaqa aholisining etnik geneziyasini shakllanishiga o'z salbiy ta'sirini ham ko'rsatib kelmoqda. Qayd etish lozimki, mintaqadagi etnik ozchiliklar, diasporalar, etnokonfessiyalar va jamiyatdagi katta kuchga ega etnoslar o'rtaida ma'lum bir darajada bo'linish mavjud. Mazkur bo'linish ular o'rtaсидаги teng huquqlilik tamoyilining mavjud emasligidan dalolat beradi. Biroq, shunga qaramasdan, ular orasida o'zaro bog'liqlik va ozroq bo'lsada o'zaro ochiqlik kuzatiladi. Bu esa, ular o'rtaсидаги o'zaro integrasiya yoki ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda juda ehtiyojkorlik bilan harakat qilishni talab etuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. "Дунё уломлари мурожаати" kitobida shunday deyiladi: "Darhaqiqat, arab mintaqamizga juda katta balolar keldi. Tinchlik jamiki insoniyatning orzu - istagidir. Xo'sh, tinchlikka olib boradigan sabab nima, qaysi vazifa ado etilsa, jamiyatda tinchlik o'rnatiladi? Bu maqsadga erishtiradigan vosita faqat bitta bo'lib, u ham bo'lsa kishilar o'rtaсидаги o'zaro munosabatda adolatni yo'nga qo'yishdir. Jamiyatda adolat bir kishi tomonidan yuzaga chiqmaydi. Chunki adolat shaxslar orasida kechadigan tizimli aloqa bo'lib, boshqalarning haqlarini poymol qilmaslik va o'zgalar oldidagi vazifalarini to'la - to'kis bajarish bilan yuzaga chiqadi. Demak, adolat jamiyatni tinchlikka olib boradigan o'zaro tizimli vositadir. Shu bois, adolat qaror topgan joylarda yashovchi har bir insonning hayoti tinchlik va xotirjamlikda o'tadi"²⁶. Sharq mintaqasida istiqomat qiluvchi aholining katta qismi arablarga to'g'ri kelsa, keyingi o'rinnarda turklar, forslar,

25 Nuriddinov Erkin Zuhiddinovich, Zokirov Shavkat Shukurovich, Ismatullayev Farhod Odiljonovich. Jahon tarix. Eng yangi davr. Darslik. — Toshkent: "INNOVATSIYA- ZIYO", 2019, — 279 b.

26 Дунё уломлари мурожаати. – Тошкент: "Movarounnahr", 2016. – 56-82-83 6.

kurdalar, yaxudiyilar, cherkeslar, armanlar, turkmanlar, lezginlar, belujiylar, qisman greklar, ossurlar va boshqa millat vakillari yashaydi.

Ushbu xalqlar diniy konfessional jihatdan ham turli ko'rinishga ega bo'lib, bunday holat o'ta siyosiy ahamiyat kasb etmoqda. Yaqin Sharq mintaqasidagi etnosiyosiy munosabatlardagi ziddiyatlar ham o'zaro hamkorlik ham asosan ko'pchilikni tashkil etuvchi millat va undan keyingi o'rinda turuvchi etnik hamda diniy guruhlar o'rtasida yuzaga kelmoqda. Bu esa butun mintaqa davlatlari uchun xos bo'lib, mintaqa xavfsizligini ta'minlashda, davlararo munosabatlarda va umuman jahon siyosatida katta o'rin tutmoqda.

Arab-Isroil nizosi dunyodagi barcha nizolar ichidagi hal qilib bo'lmaydigan eng uzoq muddatli nizoga aylandi. Yaqin Sharq arab-isroil nizosidan keyingi o'rinda turadigan etnik masala - kurdalar muammosidir. Kurdlar Yaqin Sharqda dunyodagi o'z mustaqil davlatiga ega bola olmagan qadimiy xalq bolib o'zining milliy huquqi, qolaversa o'z hududida yashash erkinligi uchun kurashib kelmoqda .

"Geosiyosiy nuqtai nazardan davlatning xalqaro siyosatga ta'siri global yoki mintaqaviy darajada bo'ladi"²⁷. Yaqin Sharq o'zining sivilizatsiya uchog'i tabiiy resurslarga boyligi va siyosiy jihatdan strategik ahamiyat kasb etishi bilan dunyo davlatlarini o'z e'tiboriga tortib kelgan. Bugungi kunda mintaqa davlatlari Iraq, Eron, Quvvayt, Saudiya Arabiston, Qatar, Liviya, Birlashgan Arab Amirligi, Jazoir kabi davlatlar Neftni eksport qiluvchi arab davlatlari tashkiloti²⁸ (OPEK, ingl. Organization of Petroleum Exporting Countries – OPEK) a'zosi sifatida dunyo neft zahiralarining 61.7%, gaz esa 40.6% ni tashkil etadi²⁹, tushadigan bir kunlik foyda 600-700 mln. AQSh dollarini tashkil etmoqda.³⁰

Agar mintaqo davlatlarini turizm salohiyati va qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishidagi rolini inobatga oladigan bo'lsak, uning jahon iqtisodiyotidagi o'rnining qanchalik katta ahamiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu mintaqaning geosiyosiy va geoijtisodiy o'rnini belgilab, mintaqadagi keskin vaziyatlarning kelib chiqishini tasodifiy emasligini anglatadi. Shu o'rinda, biz asli livanlik ingliz tarixchisi Albert Xouranining, "Agar kimda-kim Yaqin Sharqni boshqarsa, u dunyoni boshqaradi, va agar kim dunyo hukmronligiga harakat qilmoqchi bo'lsa, u

27 Мұхаммадсидиков М.М. Саудия Арабистонининг Қизил дengiz mintaqasiда xavfiszlikni ta'minlash ciёsatinining xususiyatlari: Ciёsий fanlari nomzodi ... disss. – Toshkent, – 2005. – 54 б.

28 Мадаминова Д.И. Misr Arab Respublikasining Urta Er Dengizi mintaqasidagi xavfiszlikni ta'minlash ciёsat. Ciёsий fanlar nomzodi ... disss. – Toshkent, 2010. – 72 б.

29 Мұхаммадсидиков М.М. Afrika Arab davlatlariida dinnинг ciёsийлашuvini va uning ciёsий жараёнlariga ta'siri: Ciёsий fanlar doktori ... disss. – Toshkent, 2018. – 192 б.

30 Каримов Ф.Э. Яқин Шарқ давлатларидағы этносиёсий жараёнларнинг мінтақа хавфисзлигига та'siri: Ciёsий fanlar nomzodi ... disss. – Toshkent, 2017. — 90 б.

albatta, Yaqin Sharqqa qiziqishga majburdir", deb yozgan fikrida ma'lum darajada haqiqat yotganini ta'kidlash mumkin. Darhaqiqat, XX asrning 90-yillarida jahon geosiyosiy maydonida yuz bergan tub o'zgarishlar mintaqada hukmronlik qilish va uning tabiiy boyliklarini qo'lga kiritish maqsadida dunyoning yetakchi siyosiy kuchlari o'rtaсидаги manfaatlar raqobatning kuchayishi bir tomondan, mintaqaga xavfsizligiga jiddiy tahdid solgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu raqobat, o'z navbatida, mintaqadagi etnosiyosiy vaziyatga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsata boshladi.

Tadqiqotchi S.A.Yetev: "Iroqning Quvaytga bostirib kirishi, uzoq yillar mobaynida Bag'dodning hamkori bo'lgan Fransiya va Rossiyaning Fors ko'rfazidagi ta'sirini keskin susayishiga, Saudiya Arabistonni boshchiligidagi ko'rfaz davlatlarining mudofaa sohasida AQSH bilan yaqin hamkorligini o'rnatilishiga va bu hududdagi AQSH mavqeini mustahkamlanishiga zamin yaratdi"³¹ - degan fikrni bildiradi. Bu davrda AQSHning "yangi demokratiyani kengaytirish va uni xalqaro ishlarga jalg qilish" strategiyasi ilgari surildi.

2002-yili prezident kichik Jorj Bush boshchiligidida ishlab chiqilgan "AQSH milliy xavfsizlik strategiyasi" nomli rasmiy hujjat asosida AQSHning bu mintaqaga nisbatan yangi "Katta Yaqin Sharq" strategiyasi ishlab chiqildi. Mazkur strategiya AQSHning Yaqin Sharq mintaqasida yakka hukmronligini, siyosiy islam omilining ta'sirini kamaytirish va "islom renessansi (qayta uyg'onish)" ga yo'l qo'yemaslikni nazarda tutardi. Strategiyaning muallifi AQSHning sobiq davlat kotibi Kandoliza Rayz hisoblanadi. Rossiya Federatsiyasining Yaqin Sharq Instituti mutaxassislarining ta'kidlashlaricha, mazkur strategiyani amalga tadbiq etish doirasida AQSH Yaqin Sharqdagi neft va gaz konlari ustidan monopol nazorat qilish huquqini va ushbu neftga bog'lanib qolgan davlatlar (a'zo davlatlari, Yaponiya, Xitoy v.b.)³² ta'sir o'tkaza olish imkoniyatini qo'lga kiritish orqali butun dunyoda yagona yetakchi davlat sifatida o'nini mustahkamlashni maqsad qilib olgan edi.

Iroqdagi urush Yaqin Sharqning avvalgi tuzumiga nisbatan birinchi zarbalaridan bo'lib, u mintaqaga tarixida yangi bosqich boshlanganligini anglatar edi. AQSH mazkur mintaqada hali bunday ko'lAMDAGI harbiy intervensiyyada ishtrok etmagan. Ushbu urush natijasida Iroq amalda bir necha qismlarga bo'linib ketib,

31 Каримов Ф.Э. Яқин Шарқ давлатларидағы этносиёсий жараёнларнинг мінтақа хавфсизлигига таъсири: Сиёсий фанлар номзоди ... дисс. – Тошкент, 2017. 94 б.

32 Каримов Ф.Э. Яқин Шарқ давлатларидағы этносиёсий жараёнларнинг мінтақа хавфсизлигига таъсири: Сиёсий фанлар номзоди ... дисс. – Тошкент, 2017. — 94-95 б.

Zbignev Bjezinskiy nazdida aytilganidek o'ziga xos "qora tuynuk" hosil bo'lishiga sababchi bo'ldi³³.

Iraq rahbari Saddam Husayn o'ldirildi. "Ammo va'da berilganidek Iroqda demokratiya va tinchlik o'rnatilmadi. AQSH va uning ittfoqchilarini Iroqdagi vaziyatni jilovlay olmadilar. Terroristik harakatlar avj oldi. Bularning natijasida hamon begunox, odamlar qurban bo'lmoqda"³⁴. "AQSh hukumati, jumladan, prezident B.Obama Aqshning Iroqqa nisbatan siyosati xato ekanligini tan oldi. Ko'pchilik mutaxassislar aynan Amerika siyosati Yaqin Sharqda vaziyatning keskinlashuviga, ISHID singari terroristik tashkilotlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi, deb hisoblashmoqda. 2016 - yil dekabrda AQSh prezidenti etib saylangan D. Tramp Yaqin Sharqdagi o'z siyosatini qayta ko'rib chiqishga vada berdi"³⁵.

AQSHning bu harakati, o'z navbatida, bir necha arab davlatlari tomonidan qoralandi. Xususan, ular Washingtonni Amerika g'oyasi asosida "Katta Yaqin Sharq"ni "qayta qurishi", navbatda, Isroiil va AQSHning manfaatlarini ta'minlashga yo'naltirilganlikda ayplashdi. Suriya prezidenti Bashar Asad: "mavjud siyosiy muammolar va urush sharoitida demokratiya va rivojlanish bo'lishi mumkin emas, undan keyin, nafaqat Suriyada, balki butun mintaqada hech kim amerikaliklarning tashabbusiga ishonmaydi", - deb ta'kidlagan bo'lsa, Liviya inqilobi yetakchisi Muammar Kaddafiy amerikaliklarning mazkur tashabbusini "irqchilikka qaratilgan" va "Yaqin Sharqda bo'ladigan hodisalarga arab Mag'ribining hech qanday bog'liqligi yo'q", - deb ta'kidlagan edi.

AQSHning mudofaa vaziri Chak Xeygel ta'kidlaydiki, AQSHning Yaqin Sharq bo'yicha tashqi siyosatini mohiyati "jarayonlarning rivojlanish yo'llari" tashkil etadi. Ya'ni , AQSH mintaqaning umumiyligi geosiyosiy holatini belgilashga intilib keladi. Shu yo'l orqali u mintaqadagi jarayonlar dinamikasini nazorat qilishni maqsad qiladi.

Xitoy geosiyosiy maqsadlari iqtisodiy manfaatlardan kelib chiqadi. U mazkur geosiyosiy jarayonlarda o'z energetik xavfsizligini ko'zlagan holda ish tutmoqda. Xitoy arab davlatlari bilan iqtisodiy va energetik aloqalari samarali rivojlanib bormoqda. Agarda Xitoy 2007-yilda o'zining energiyaga bo'lgan ehtiyojlarini Yaqin Sharq mintaqasi davlatlari hisobidan 38,7%ga qondirgan bo'lsa, 2010-yilga kelib bu ko'rsatkich 47%ni tashkil qilgan. 2011-yilning oxiriga kelib Xitoyning 18 ta arab davlatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi 200 mlrd. AQSH dollarini tashkil qilgan.

33 Каримов Ф.Э. Яқин Шарқ давлатларидағи этносиёсий жараёнларнинг минтақа хавфсизлигига таъсири: Сиёсий фанлар номзоди ... дисс. – Тошкент, 2017. — 95 б.

34 Эргашев Ш., Бобоматов Т. XX аср: тақдирларда акс этган тарих. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – 484 б.

35 Эргашев Ш. Жаҳон тарихи (энг янги давр. IV қисм. 1945—2017 йиллар). – Тошкент: "O'zbekiston" НМИУ, 2019. – 548-549 б.

Albatta, mintaqada hozirda AQSH, Rossiya va Xitoy o'rtasida katta geosiyosiy o'yin ketmoqda. Rossiyaga keladigan bo'lsovets, Sovet Ittifoqi parchalangandan keyin, Yaqin Sharq mintaqasida o'z o'rnini yo'qotgan Moskva, bugungi kunda mintaqada o'z ta'sir doirasini tiklash va kuchaytirish maqsadida faol tashqi siyosat yuritmoqda. Buni Eronga nisbatan sanksiyani qo'llab-quvvatlamaslikda va Suriyaga harbiy yurishlarni oldini olish borasidagi sayi-harakatlarida ko'rish mumkin. Umuman olganda, Xitoy va Rossiya (shuningdek, ba'zi Yevropa davlatlari) Yaqin Sharqdagi demokratiyalashmagan davlatlarda siyosiy islohotlarni olib borishda Amerika ta'sirini kuchayishiga qarshi harakat qilmoqda. 36

Suriya inqirozi paytida Rossianing mintaqadagi ta'siri kuchaya boshladi. Bunga Suriya hukumatini B.Asadni himoya qilgan holda muholifat va ISHID jangarilariga qarshi olib borgan muvafaqqiyatli harbiy harakatlar natijasida "hozirgi kunga kelib xalqaro ittifoqichi kuchlar yordamida terrorchilarning hujumlari to'xtatildi"³⁷ va O'rta Yer dengizidagi Suriyaga tegishli Tartuz harbiy bazasini qo'lga kiritdi. Tashqi kuchlarning geosiyosiy maqsadlarida vujudga kelgan urushlar va qarama-qarshiliklar natijasida mintaqada qurollanish kuchayib ketdi. Mintaqada yadro va kimyoviy qurollar bozoriga aylandi. Bu qurollar mintaqada etnik va diniy qarama-qarshiliklarda, mintaqada uchun yetakchilikka intiluvchi davlatlar uchun asosiy vositalardan biriga aylandi. "Isroil har yili AQShdan 1,8 mlrdlik miqdorida harbiy yordam oladi"³⁸.

Umuman olganda, bunday mazhablararo majorodan unumli foydalangan g'arb davlatlari, Rossiya va Xitoy mintaqada davlatlariga katta miqdorda o'z qurollarini sotish bilan birga, u yoki bu mazhab vakilini yoki etnik guruhlarni qo'llab-quvvatlab keladi. Bunga misol sifatida bugungi kunda Iraq va Suriyada terrorizmga qarshi kurashda AQSH "Kurd ishchilar partiyasi" va Suriyadagi kurd tashkilotlarini PYG/YPG qurol yaroq bilan ta'minlayotganini keltirish mumkin. AQSHning bunday harakatlariga nisbatan Turkiya bir necha bor keskin munosabat bildirib kelmoqda. Chunki, bu Turkiya xavfsizligiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi bilan izohlanmoqda.

Bundan tashqari, 1990-yillardan boshlab G'arb davlatlari tomonidan mintaqada davlatlarini "demokratlashtirish" tamoyillari asosida olib borilgan siyosat mintaqada yangi siyosiy madaniyatni shakllanishiga yanada kuchli ta'siri ko'rsatgan holda, ko'p holatlarda salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqaradi. 2003-

36 Каримов Ф.Э. Яқин Шарқ давлатларидағы этносиёсий жараёнларнинг миңтақа хавфсизлигига таъсири: Сиёсий фанлар номзоди ... дисс. – Тошкент, 2017. — 96-97 б.

37 Айдарбек Тулепов. Ишид фитнаси. —Тошкент: "Мовароуннахр", 2016. — 101 б.

38 Бакланов А.Г. Ближний Восток на рубеже XXI Века: к созданию системы региональной безопасности. – Москва: МГИМО, 2001. – 85 с.

yildagi Xalqaro tinchlikparvar kuchlarning Iroqqa harbiy intervensiysi va 2011-yildagi Liviyaga qarshi harbiy harakatlaridan so'ng vujudga kelgan keskin etnosiyosiy vaizylatlarni bunga misol qilib keltirish mumkin. Shuningdek, 2011-yilda boshlangan "arab bahori" natijasida Misrdagi Xusni Muborak rejimining qulashi va undan keyingi holatlar mamlakatda etnik va diniy konfessiyalararo ziddiyatlarni keltirib chiqarganini ham aytib o'tish mumkin.

2011-yilning bahorida sodir bo'lgan inqilobiy harakatlardan so'ng, G'arb davlatlari tomonidan ilgari surilayotgan yangi siyosiy madaniyatning ta'siri nafaqat Misr, balki boshqa Arab Mag'ribi va Fors ko'rfazi arab davlatlariga ham yoyilish xavfi sezilarli darajada namoyon bo'ldi. Bu mazkur mintaqalar, masalan, Marokash va Jazoirdagi barbarlarning siyosiy uyg'onishiga, Saudiya Arabistonidagi al-Saud sulolalaridan norozi guruhlarning, ayniqsa, Bahrayndagi 60 foizni tashkil etuvchi shia vakillarining ko'tarilishiga, Yamandagi 1990-yillar boshida ro'y bergen fuqarolar urushining qayta jonlanishiga, Livandagi fuqarolararo munosabatlarni yanada keskinlashuviga, eng jiddysi, kurdlarning Kurdiston davlatini tashkil etish orzularini amalga oshirish uchun qulay imkoniyatlarni yuzaga kelishiga olib keldi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, mintaqadagi tashqi kuchlarning bevosita va bilvosita ta'siri ostida, bugungi kunda etnik va diniy kamchilikni tashkil etuvchi guruhlar bir yoki bir qancha hududiy chegaralarga bo'lingan. Bunday davlatlarda siyosiy elitalar butun xalqning emas, balki o'zлari tegishli bo'lgan etnik va diniy guruh vakillari manfaatlarini aks ettiradi. Mintqa davlatlarining aksariyatida amaldagi hukumat to'la institutsionallasha olmaganligi bois, aholining barcha qatlamlari tomonidan ularni tan olinmaganligi holatlari mavjud. Bunday holatlarni masalan, Suriyada, mamlakatning ayrim hududlarida Bashar Asadni davlat rahbari sifatida to'liq tan olinmaganligi bois davlat hokimiyatini amalga oshirish imkoniyatlarini cheklanganligida kuzatish mumkin.

Ma'lumki, Yaqin Sharq mintaqasi ko'plab diniy (mazkur mintaqaga islom, xristian, yaxudiylik dinlari paydo bo'lgan hudud hisoblanadi), etnik-milliy, milliy-madaniy, milliy-hududiy guruhlarning vatani hisoblanadi. Mintaqadagi etnik etnik-diniy vaziyatni tadqiq etgan olim Albert Xourani arab dunyosidgai etnik ozchiliklarga - diniy yoki etno-madaniy tegishliligiga ko'ra qarashlari nuqtai nazaridan sunniylarga tegishli bo'limgan guruhlarni kiritadi. Olimga ko'ra, ozchilikni tashkil etadigan quyidagi guruhlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

* etnik jihatdan arab, lekin musulmon-sunniy bo'limganlar: xristian qiptiylari, yunon katoliklari, maroniylar, protestantlar, shialar, alois va druzlar;

* arab bo'limgan sunniy guruhlari: kurdlar, chetkeslar va turkmanlar;

* arab ham, musulmon ham bo'limgan guruhlar: yaxudiylar, armanlar, oshurlar, Janubiy Sudandagi xristian va animist bo'limgan bo'lgan qabilalar. Boshqa bir tadqiqot orqali zamonaviy Yaqin Sharqda etnik ozchilikni tashkil etuvchi guruhlarni tasniflashda ularni besh kategoriyaga bo'lishimiz mumkin:

* diniy ozchiliklar: yaxudiylar, xristian qiptiylar, yunon pravoslavlari, yunon katoliklari, maroniylar, protestantlar;

* etnik-milliy ozchiliklar: kurdlar, druzlar, armanlar, cherkeslar, oshurlar, Janubiy Sudandagi animistlar, berberlar, turkmanlar, Isroildagi arablar;

* an'anaviy bo'limgan islom ozchiliga: alaviylar, druzlar, ahmadiylar, ismoiliylar, bexeylar;

* siyosiy ozchiliklar: Saudiya Arabistonidagi shialar, Erondagi sunniylar;

* majoritar ozchilikka: Iroq va Baxrayndagi shialar, Suriyadagi sunniylar, Jordaniyadagi falastinliklarni kiritish mumkin.

XX asrda ushbu mintaqada g'arb davlatlarining ta'siri va mustamlakachilik siyosati natijasida sun'iy ravishda 22 arab va 1 yaxudiy davlatining tuzilishi mazhab va etnik nizolarning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Bunda holatda, to'g'ri boshqaruva tizimi yo'lga qo'yagan arab davlatlarida ziddiyatlar, turli nizo va qarama-qarshiliklar kuchayib, rivojlanib ketdi.

Mintaqa davlatlari o'rtasidagi yagona etnosiyosiy yondashuv hamda barqaror muvozanatning mavjud emasligi ushbu tashqi kuchlar qo'lida jiddiy quroq vazifasini bajarmoqda. Natijada bugun mintaqada arab-isroil muommosi bilan birga, bir qator boshqa jiddiy nizolar saqlanib qolmoqda. Bunday jiddiy muammolar orasida to'rtta davlatda istiqomat qiladigan lekin, o'z davlatiga ega bo'limgan kurdlar muammosi, Iroq janubidagi shia vakillarining mustaqillik yo'lidagi harakatlari, Sudan janubiy shtatlarining alohida bo'llishiga intilishi, ko'p konfessiyali Livanda shia, sunniy, maroniylar va druzlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar, Saudiya Arabiston va Bahrayndagi sunniylar va shialar o'rtasidagi ixtiloflar, Misrda musulmonlar va xristian qiptiylari o'rtasidagi, Jazoir va Marokashda arab va barbarlar, Mavritaniyada arab va nigerlar o'rtasidagi nizolarning kelib chiqishi xavfi, Liviyada urug'-aymoqchilikning kuchayib borayotganligi va separatistik harakatlarning tobora avj olishi, umuman terrorizm, diniy ekstremizm kabi ko'plab muammolarni vujudga keltirmoqda.

"Ma'lumki, bugungi kunda mintaqaga xavfsizligini ta'minlash mintaqada davlatlari oldida turgan dolzarb masala hisoblanadi"³⁹. Zero," mintaqaviy rivojlanish hamda siyosat va iqtisod sohasidagi hamkorlik arab davlatlari o'rtasida

39 Мұхаммадсidiков М.М. Саудия Арабистонининг Қызил дengiz mintaqасида хавфсизликни таъминлаш сиёсатининг хусусиятлари: Сиёсий фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, – 2005. – 41 б.

o'zaro ishonchli munosabatlarning o'rnatilishini talab qiladi"⁴⁰. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov quyidagi fikrlarni keltiradi: "Aftidan, bugungi kunda xavfsizlik va barqarorlik yo'lida paydo bo'layotgan tahdidlarga tegishli munosabatda bo'la olishning o'zigma etarli emas. Mavjud xavf-xatarlarning tabiatini to'g'ri tushunib etishimiz kerak. Ularning manbalari va o'zaro aloqalarini vaqtida aniqlashimiz darkor. Jamiyatda barqarorlikni saqlash shart-sharoitlarini belgilab olishimiz va ulardan samarali foydalanishimiz zarur"⁴¹. Xalqimizning etnik, madaniy va diniy sabr-bardoshi ma'naviy Uyg'onishning yanabir bitmas-tuganmas manbaidir. Yaqin Sharq xalqlari etnik va diniy muammolarini hal etish yo'llarini Markaziy Osiyo xalqlaridan o'rnak qilib olsalar bo'ladi. Chunki, "Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va tinch-totuv yashagan markaz bo'lib keldi. Etnik sabr - toqat, bag'rikenglik hayot bo'ronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy me'yorlarga aylandi"⁴².

Yuqoridaagi tahlillardan ko'rinish turibdiki, Yaqin Sharqdagi geosiyosiy jarayonlarda tashqi kuch omili, uning mintaqadagi resurslarini qo'lga kiritish, va shu orqali jahon geosiyosiy jarayonlarida yetakchi davlat si3fatida o'z pozitsiyalarini mustahkamlash, ushbu hududda mutloq hukumdarlikni o'rnatish kabi strategik maqsadlarda namoyon bo'lmoqda. Ikkinchidan, mintaqada yetakchi davlatlarni yetishib chiqishini ta'minlash yoki yetakchilikka intilayotgan davlatni pozitsiyasini tushurishga intilish natijasida turli ixtiloflarni vujudga keltirish. Garchi, bu holat yana davom etadigan bo'lsa, yaqin kelajakda Yaqin Sharq mintaqasida dunyoning yetakchi davlatlari jumladan, AQSH, YEI, Rossiya, Xitoy kabi mamlakatlarning manfaatlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir o'tkazuvchi yirik qurolli to'qnashuvlar sodir bo'lishi mumkin degan xulosaga ham kelish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Каримов Ф.Э. Яқин Шарқ давлатларидағи этносиёсий жараёнларнинг минтақа хавфсизлигига таъсири: Сиёсий фанлар номзоди ... дисс. – Тошкент, 2017. 56 б.

40 Абдуллаев Н. А. Сурия Араб Республикасининг Яқин Шарқ муаммоси юзасидан минтақадаги сиёсати: Сиёсий фанлар номзоди ... дисс. – Тошкент. 2000. – 59 б.

41 Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон. 1997. – Б. 11.

42 ИСЛОМ КАРИМОВ. ХАВФСИЗЛИК ВА БАРҚАРОРЛИК ЙЎЛИДА. —Тошкент: «Ўзбекистон», 1998. — 118 б.

2.Nuriddinov Erkin Zuhriddinovich, Zokirov Shavkat Shukurovich, Ismatullayev Farhod Odiljonovich. Jahon tarix. Eng yangi davr. Darslik. – Toshkent: "INNOVATSIYA-ZIYO", 2019, – 279 б.

3. Дунё уломалари мурожаати. – Тошкент: "Movarounnahr", 2016. – 56-82-83 б.

4.Муҳаммадсидиқов М.М. Саудия Арабистонининг Қизил денгиз минтақасида хавфсизликни таъминлаш сиёсатининг хусусиятлари: Сиёсий фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, – 2005. – 54 б.

5.Мадаминова Д.И. Миср Араб Республикасининг Ўрта Ер Денгизи минтақасидаги хавфсизликни таъминлаш сиёсати. Сиёсий фанлар номзоди ... дисс. – Тошкент, 2010. – 72 б.

6.Муҳаммадсидиқов М.М. Африка Араб давлатларида диннинг сиёсийлашуви ва унинг сиёсий жараёнларга таъсири: Сиёсий фанлар доктори ... дисс. – Тошкент, 2018. – 192 б.

7.Каримов Ф.Э. Яқин Шарқ давлатларидағи этносиёсий жараёнларнинг минтақа хавфсизлигига таъсири: Сиёсий фанлар номзоди ... дисс. – Тошкент, 2017. – 90 б.

8.Каримов Ф.Э. Яқин Шарқ давлатларидағи этносиёсий жараёнларнинг минтақа хавфсизлигига таъсири: Сиёсий фанлар номзоди ... дисс. – Тошкент, 2017. 94 б.

9. Каримов Ф.Э. Яқин Шарқ давлатларидағи этносиёсий жараёнларнинг минтақа хавфсизлигига таъсири: Сиёсий фанлар номзоди ... дисс. – Тошкент, 2017. – 94-95 б.

10. Каримов Ф.Э. Яқин Шарқ давлатларидағи этносиёсий жараёнларнинг минтақа хавфсизлигига таъсири: Сиёсий фанлар номзоди ... дисс. – Тошкент, 2017. – 95 б.

11.Эргашев Ш., Бобоматов Т. XX аср: тақдирларда акс этган тарих. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – 484 б.

12.Эргашев Ш. Жаҳон тарихи (энг янги давр. IV қисм. 1945 – 2017 йиллар). – Тошкент: "O'zbekiston" НМИУ, 2019. – 548-549 б.

13.Каримов Ф.Э. Яқин Шарқ давлатларидағи этносиёсий жараёнларнинг минтақа хавфсизлигига таъсири: Сиёсий фанлар номзоди ... дисс. – Тошкент, 2017. – 96-97 б.

14. Айдарбек Тулепов. Ишид фитнаси. – Тошкент: "Мовароуннаҳр", 2016. – 101 б.

15.Бакланов А.Г. Ближний Восток на рубеже ХХI Века: к созданию системы региональной безопасности. – Москва: МГИМО, 2001. – 85 с.

- 16.Мухаммадсидиқов М.М. Саудия Арабистонининг Қизил денгиз минтақасида хавфсизликни таъминлаш сиёсатининг хусусиятлари: Сиёсий фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, – 2005. – 41 б.
17. Абдуллаев Н. А. Сурия Араб Республикасининг Яқин Шарқ муаммоси юзасидан минтақадаги сиёсати: Сиёсий фанлар номзоди ... дисс. – Тошкент. 2000. – 59 б.
- 18.Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон. 1997. – Б. 11.
- 19.ИСЛОМ КАРИМОВ. ХАВФСИЗЛИК ВА БАРҚАРОРЛИК ЙЎЛИДА. – Тошкент: «Ўзбекистон», 1998. – 118 б.